

O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus va professional ta'lim

2024/2025 o'quv yili boshiga


- I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
- II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar
- III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)
- VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari

So'nggi yillarda Andijon viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim tizimida sifat jixatidan sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda, jumladan, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining umumiy soni deyarli o'zgarish sezilmagan. 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **1 taga**, ya'ni **1,3 % ga** kamaygan, **75 tani** tashkil etgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari soni

(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan akademik litseylar soni 2024/2025 o'quv yili boshida **6 tani** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **1 taga**, ya'ni **20,0 % ga** oshgani kuzatilgan. Shuningdek, texnikumlar sonida ham o'sish qayd etilgan. Mazkur davr davomida ularning soni **2 taga (10,0 % ga)** oshib, 2024/2025 o'quv yili boshida **22 tani** tashkil etgan.

Kasb-hunar maktablari va kollejlari sonida esa yuqorida ko'rsatilgan davr mobaynida pasayish kuzatilgan. 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan kasb-hunar maktablari soni **1 taga** (ya'ni **3,0 % ga**), kollejlari soni **3 taga (16,7 % ga)** kamayib, tegishlilikiga **32 ta** va **15 tani** tashkil etgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, birlik)


	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlari	Texnikumlar
Andijon viloyati	6	32	15	22
<i>shu jumladan:</i>				
<i>shaharlar:</i>				
Andijon	5	5	4	6
Xonobod	-	1	1	1
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko'l	-	2	-	1
Andijon	1	3	-	1
Baliqchi	-	2	1	1
Bo'ston	-	1	-	1
Buloqboshi	-	2	1	-
Jalaquduq	-	2	1	-
Izboskan	-	2	-	1
Ulug'nor	-	1	-	-
Qo'rg'ontepa	-	1	2	1
Asaka	-	3	1	2
Marhamat	-	2	1	2
Shahrixon	-	2	1	2
Paxtaobod	-	2	1	2
Xo'jaobod	-	1	1	1

Eng ko'p akademik litseylar Andijon shahri (5 ta), va Andijon (1 ta) tumanida kuzatilgan. Kasb-hunar maktablari bo'yicha – Andijon shahri (5 ta), Andijon (3 ta) va Asaka (3 ta) tumanlari, kollejlari bo'yicha – Andijon shahri (4 ta), Qo'rg'on (2 ta) qolgan 8 ta tumanlarda (1 ta) dan, hamda texnikumlar soni bo'yicha Andijon shaharida (6 ta) va Asaka, Marhamat, Shahrixon va Paxtaobod tumanlarida (2 ta) dan eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etganlar.

II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar

Viloyatimizda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar sonida umumiy o'sish kuzatilmoqda. 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan kasb-hunar maktablariga qabul qilinganlar soni sezilarli darajada oshib, **9,6 ming nafardan 12,2 ming nafargacha** ko'paygan, ya'ni **27,1 % ga**. Texnikumlarga qabul qilinganlar soni esa **4,3 ming nafardan 4,9 ming nafargacha**, ya'ni **13,9 % ga** oshgan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Kuzatilayotgan davr mobaynida akademik litseylarga o'quvchilarni qabul qilish ko'rsatkichi ham o'sganini ko'rish mumkin — **0,8 ming nafardan 1,1 ming nafargacha**, ya'ni **37,5 % ga** oshgan. Biroq, kollejlarda qabul qilinganlar soni keskin kamaygan — **5,9 ming nafardan 1,4 ming nafargacha**, deyarli **4,2 barobarga**.

Qabul qilingan o'quvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Andijon viloyati	1 092	12 226	1 397	4 892
<i>shu jumladan:</i>				
<i>shaharlar:</i>				
Andijon	977	2 205	769	1 141
Xonobod	-	464	-	235
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko'l	-	733	-	414
Andijon	115	1 213	-	-
Baliqchi	-	797	-	239
Bo'ston	-	342	-	154
Buloqboshi	-	730	-	-
Jalaquduq	-	450	-	-
Izboskan	-	773	-	62
Ulug'nor	-	358	-	-
Qo'rg'ontepa	-	399	628	124
Asaka	-	1 246	-	732
Marhamat	-	701	-	626
Shahrixon	-	899	-	294
Paxtaobod	-	607	-	433
Xo'jaobod	-	309	-	438


Akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilar soni bo'yicha eng Andijon shahri (**977 nafar**), kasb-hunar maktablari va kollejlar bo'yicha –Andijon shahri (tegishliligicha **2 205** va **769 nafar**), texnikumlar bo'yicha – Andijon shahri (**4 892 nafar**) da eng yuqori ko'rsatkichlar kuzatilgan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni boshqa hududlarga nisbatan akademik litseylar bo'yicha Faqatgina Andijon shahri hamda Andijon tumanlarida kuzatilgan. Kasb-hunar maktablari bo'yicha — Xo'jaobod tumani (**309 nafar**), kollejlar bo'yicha — qabullar faqatgina Andijon shahri va Qo'rg'ontepa tumanlarida kuzatilgan. Texnikumlar bo'yicha – Ulug'nor, Jalaquduq, Buloqboshi va Andijon tumanlarida hech qanday qabullar kuzatilmagan sababi ushbu tumanlarda texnikumlar yo'q.

III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

So'nggi yillarda Andijon viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy soni ortib bormoqda. 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **4,2 ming nafarga**, ya'ni deyarli **12,5 % ga** ko'payib, **45,1 ming nafarni** tashkil etgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarga kelsak, 2024/2025 o'quv yili boshida ularning soni **2,0 ming nafarni** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **5,2 % ga** oshgan. Shuningdek, kollej o'quvchilari soni kamaygan — ushbu davr mobaynida **6,4 ming nafarga** (ya'ni **60,4 % ga**) qisqarib, 2024/2025 o'quv yili boshida **4,2 ming nafarni** tashkil etgan.

Yuqorida qayd etilgan vaqt oralig'ida kasb-hunar maktablari va texnikumlardagi o'quvchilar sonini ortishi kuzatilgan. 2024/2025 o'quv yili boshiga kelib, 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan kasb-hunar maktablarida o'quvchilar soni **5,4 ming nafarga**, ya'ni **31,2 % ga** oshgan, texnikumlarda esa **5,0 ming nafarga** (**45,0 % ga**) ko'paygan. Tegishliligi bo'yicha ularning umumiy soni **27,7 ming** va **16,1 ming nafarni** tashkil etgan.


Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida (**1,8 ming**), kasb-hunar maktablari bo'yicha ham Andijon shahrida (**4,4 ming**), kollejlarda bo'yicha Qo'rg'ontepa tumanida (**1,3 ming**), texnikumlar bo'yicha esa Andijon shahrida (**4,7 ming**) qayd etilgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Andijon viloyati	2 020	22 770	4 194	16 110
<i>shu jumladan:</i>				
<i>shaharlar:</i>				
Andijon	1 852	4 451	1 211	4 712
Xonobod	-	801	88	362
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko'l	-	1 292	-	496
Andijon	168	1 985	-	29
Baliqchi	-	1 465	112	931
Bo'ston	-	651	-	852
Buloqboshi	-	1 298	166	-
Jalaquduq	-	807	67	-
Izboskan	-	1 349	-	244
Ulug'nor	-	599	-	-
Qo'rg'ontepa	-	836	1 325	987
Asaka	-	2 638	364	2 103
Marhamat	-	1 297	464	1 098
Shahrixon	-	1 517	127	494
Paxtaobod	-	1 221	159	2 942
Xo'jaobod	-	563	111	860

IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

So'nggi yillarda viloyatimizda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarini bitirganlar sonida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. 2024 yilda, 2021 yilga nisbatan, ularning umumiy soni **2,0 barobarga** oshib, **18,6 ming nafarni** tashkil etgan.



Mazkur davr mobaynida kasb-hunar maktablarining bitiruvchilari soni **1,0 ming nafarga** (ya'ni **12,6 foizga**), kollejlarniki — **2,4 ming nafarga** (**7 barobarga**), texnikumlarniki esa **5,7 ming nafarga** (**19 barobarga**) oshgani qayd etilgan. Akademik

litseylarning bitiruvchilariga kelsak, ushbu davrda ularning soni **0,1 ming nafarga**, ya'ni **10,0 % ga** kamaygan.

Bitiruvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi


(2024 yil uchun, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Andijon viloyati	864	8 921	2 773	6 000
shu jumladan:				
shaharlar:				
Andijon	864	1 814	573	1 819
Xonobod	-	201	67	100
tumanlar:				
Oltinko'l	-	451	-	47
Andijon	-	742	-	64
Baliqchi	-	620	245	796
Bo'ston	-	306	-	399
Buloqboshi	-	256	165	-
Jalaquduq	-	395	156	-
Izboskan	-	486	-	68
Ulug'nor	-	233	-	-
Qo'rg'ontepa	-	324	419	491
Asaka	-	1 129	393	552
Marhamat	-	565	280	234
Shahrixon	-	651	194	134
Paxtaobod	-	483	179	1 115
Xo'jaobod	-	265	102	181

V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)

2024/2025 o'quv yili boshida Andijon viloyatidagi o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)ning umumiy soni **2 263 nafarni** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **1 915 nafarga**, ya'ni **18,2 % ga** oshgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, kishi)



2024/2025 o'quv yili boshida akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni **198 nafarni** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **0,2 % ga** kamaygan. Shuningdek, kasb-hunar maktablari va texnikumlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonida ham o'sish kuzatilmoqda. Kasb-hunar maktablarida ularning soni **389 nafarga**, ya'ni **43,5 % ga** ko'payib, **1 284 nafarni** tashkil etgan. Texnikumlarda esa ushbu ko'rsatkich **142 nafarga** (32,5 % ga) oshib, **579 nafarga** etgan.

O'z o'rnida, kollejlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni kamayganligi kuzatilgan. Mazkur davrda ularning soni **181 nafarga** (47,0 % ga) qisqarib, 2024/2025 o'quv yili boshida **204 nafarni** tashkil etgan.

Enga ko'p pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni akademik litseylar bo'yicha Andijon shahri (**196 nafar**), kasb-hunar maktablari bo'yicha — Andijon shahri (**238 nafar**), kollejlarda bo'yicha — Qo'rg'ontepa tumani (**61 nafar**), texnikumlar bo'yicha esa — Andijon shahrida (**178 nafar**)da kuzatilgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Andijon viloyati	196	1284	204	579
shu jumladan:				
shaharlar:				
Andijon	180	238	61	178
Xonobod	-	34	6	8
tumanlar:				
Oltinko'l	-	83	-	8
Andijon	16	101	-	4
Baliqchi	-	72	5	42
Bo'ston	-	38	-	31
Buloqboshi	-	94	13	-
Jalaquduq	-	68	3	-
Izboskan	-	109	-	11
Ulug'nor	-	31	-	-
Qo'rg'ontepa	-	55	61	45
Asaka	-	86	19	42
Marhamat	-	96	5	43
Shahrixon	-	59	9	40
Paxtaobod	-	82	19	96
Xo'jaobod	-	38	3	31

VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisoboti – 1 o'rta ta'lim shakli “Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylar hisoboti” ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar tomonidan taqdim etiladi.

Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylarning statistik hisoboti qabul qilinganlar, tahsil olayotganlar, bitiruvchilar, pedagog xodimlar soni va o'rta maxsus hamda professional ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilinganlar, tahsil olayotgan o'quvchilar, pedagog xodimlar soni va moddiy-texnik baza kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaoror rivojlanish maqsadlari (BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Manzil: 100170, Andijon sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
El. manzil: info@stat.uz
Tel.: 74-228-48-51 (74)

